

BŌKA TUMANI

Axmedov Sanjar Bektemirovich

t.f.f.d. (PhD) Perfect University "Gumanitar fanlar" kafedrası dotsenti v.b.

Erkinova Gulpari

Perfect University talabasi

Annotatsiya: *Bŏka tumani tarixi, axolisi, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti haqida.*

Kalit soz: *Bŏka tumani, viloyat,*

Taxminlarga qaraganda qadimda bu nom "Qanġli bakan" ya'ni qanġli uruġi shaklida bŏlib keyinchalik "bŏkaga" aylanib ketgan. Yana bir taxminlarda ta'kidlanishicha bu nom "baxodir", "polvon", "ġolib" ma'nolarini anglatadi. Shuningdek eng qadimiy ŏzbek uruġlaridan biri degan farazlar xam bor.

Toshkent viloyati tarkibidagi tuman. Viloyatning jan.g'arbiy qismida joylashgan. 1943-yil 18-mayda tashkil etilgan. Shim.g'arbda viloyatning Oqqo'rg'on, shim.sharqda Piskent, jan.da Bekobod tumanlari bilan, g'arbda Sirdaryo viloyatining Oqoltin va Guliston tumanlari, sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 0,59 ming km². Aholisi 111,8 ming kishi (2001). Bo'ka tumani da 1 shahar (Bo'ka), 8 qishloq fuqarolari yig'ini (Bo'ston, Ko'korol, Namuna, Ravot, Turon, Chig'atoy, Qoraqo'yli, Qo'shtepa) bor. Markazi — Bo'ka shahri.[1]

Tabiati. Bo'ka tumani hududi jan. va jan.g'arbga tomon Sirdaryoga qiya tushgan tog' oldi tekisligidan iborat. Iqlimi keskin kontinental, quruq iqlim. Yanvarning o'rtacha temperaturasi —1" dan —1,5" gacha, iyulniki 27°. Vegetatsiya davri 210—215 kun. Yiliga 250-350 mm yog'in tushadi.

Bo'z tuproqlar bilan qoplangan, unumdor tekisliklarning ko'p qismi o'zlashtirilgan. Daryo bo'ylarida qumloq tuproqlar, Sirdaryo sohillarida to'qayzorlar bor. Ularda chiyabo'ri, tulki, to'ng'iz, quyon, tustovuq uchraydi.

Aholisi, asosan o'zbeklar, shuningdek tojik, qozoq, qirg'iz, rus, tatar, turk va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining o'rtacha zichligi 1 kmga 155 kishi. Shaharliklar 20,5 ming kishi, qishloq aholisi 91,3 ming kishi (2001).

Xo'jaligi. Bo'ka tumani sanoati kam rivojlangan. Paxta tozalash zavodi, maishiy xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, xalq iste'moli mollari ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar, avtobazalar, avtobustaksomotor parki bor. Turkiya bilan hamkorlikda qurilgan „Akkummashservis“ korxonasi traktor va avtomobillar uchun akkumulyator batareyalari ishlab chiqaradi. 168 kichik korxonalar, 15 kooperativ korxonalar mavjud.

Bo'ka tumani tuman xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lib, asosan paxtachilik, sabzavotchilik, chorvachilikka ixtisoslashgan. Tuman hissasiga Toshkent viloyati qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 8,2%, paxta yalpi

hosilining 15,2%, g'allaning 9,7% to'g'ri keladi (1995). Bo'ka tumani dagi 22 shirkat xo'jaligining 21 tasi paxtachilikka, bittasi bog'dorchilik, tokchilikka ixtisoslashgan, 1 ta xo'jalikaro qishloq xo'jaligi korxonasi, 279 fermer xo'jaligi, 206 shaxsiy kichik korxonalar bor.

Umumiy ekin maydoni (tomorqalar bilan birgalikda) 38,7 ming ga bo'lib, asosan sug'oriladigan yerlardir. Ekin maydonining asosiy qismi paxta, g'alla, sabzavot, kartoshka, yemxashak ekinlari bilan band. Pilla yetishtiriladi. Baliqchilik bilan shug'ullaniladi.

Chorvachiligi asosan go'sht-sut yetishtirishga ixtisoslashgan. Tumanda 25,8 ming qoramol, shundan 11,8 ming sigir, 19,9 ming qo'y va echki bor. Bo'ka tumani Toshkent viloyati va respublika tumanlari bilan avtomobil yo'llari orqali bog'langan.

1999/2000 o'quv yilida 52 umumiy ta'lim maktabida 23400 o'quvchi o'qidi. Akademik litsey, musiqa maktabi, agrokollej, 50 maktabgacha yoshdagi bolalar muassasasi, 48 kutubxona, muzey, madaniyat saroyi, kinoteatr mavjud. Markaziy kasalxona (370 o'rinli), 3 qishloq kasalxonasi, feldsherakusherlik punktlarida 160 vrach, 975 o'rta tibbiy xodim faoliyat ko'rsatadi. „Xalq ovozi“ tuman gaz. (1952-yildan) nashr etiladi.

Xulosa qilib aytganda Boka tumani u darajada qadimiy shahar emas. Boka tumani 81 yoshga to'ldi. Shu 81 yil ichida juda ko'p o'zgarishlar bo'ldi, shuningdek yangi zavod va fabrikalar, turar joy binolari va har xil savdo majmualari barpo etildi. Kelajakda bundan ham ko'proq natijalar kutib qolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ushbu maqolada O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.